

## FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN MA'MURIY JAVOBGARLIK

**Asrorova Sabina Maxmud qizi**

*Samarqand viloyati yuridik texnikumi*

*“Davlat-huquqiy faoliyat”yo‘nalishi*

*2-bosqich o‘quvchisi*

**Anontatsiya:** Maqolada jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik hamda, jamiyatdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishining sabablari va ularga imkon yaratayotgan shart-sharoitlar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Huquq , erkinlik, tajovuz, javobgarlik, jamiyat, sha’n va qadr qimmat, tuhmat, haqorat, jinoyat huquqbuzarlik.

“Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi „Inson qadri uchun” hamda „Davlat- inson uchun” tamoyillarini real hayotimizga joriy etishdir. Bu masalada qonuchilikka kiritilayotgan yangiliklar, o‘zgartirish va qo‘srimchalar demokratik jarayonlarning mustahkam huquqiy asosini yaratmoqda.”

**Shavkat Mirziyoyev**

Bugungi kunda jamiyatimiz ko‘plab ijobiylar o‘zgarishlar bilan yanada rivojlanib yuksalib bu borada, davlatimizning kelajagi va ravnaqi, fuqrolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning tinch totuv hayot kechirishlari, farzandalar kamolini ularning tarbiyasi borasidagi muhim tamoyillar tobora hayotimizda chuqur o‘rin egallab kelmoqda. Adolatli turmush tarzi insonlar faravonligi uchun xizmat qiladi. Buyuk Sohibqiron Amir Temur Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqida quydagicha “**Adolat – davlatning asosin va hukmdorning shioridir**” - deb ta’kidlab o‘tgan hikmatli so‘zlari hammamizga ma’lum. Hozirda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasini har bir vatandoshimiz o‘z hayotidagi faravon turmush tarzida, farzanlari kamolida, yaqinlarining shod-hurram kulgilariyu shukronalarida his etayotgan bo‘lsa bejiz emas. Bularning barchasi albatta bugungi islohotlarimiz natijasi va mevasidir. Hayotning o‘zi O‘zbekistonni jadal taraqqiyoti va islohoti bu boradagi faoliyatimizni yangi bosqichga olib chiqishni talab etmoqda. Yangi qonunlarni ishlab chiqish va el yurt faravonligi, davlatimizning suveren mustaqilligi ta’minlash borasida ijtimoiy hayotimizni

yanada yaxshilash uchun bir qancha qonunlarimizga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Rimning mashhur shoiri Publiliy Sir shunday deydi "**Qonunlar kuchli bo'lgan joyda xalq ham kuchlidir**". Qonunlar albatta xalqning faravon hayoti va jamiyatning rivojlanishi, davlatning go'zal va yorqin, porloq kelajagi uchun yaratiladi. Ushbu qonunlar jamiyat va davlatning barcha ijtimoiy va iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy, siyosiy sohadagi hayotini qamrab oladi.

Bugungi kunda fuqarolarimizning huquq va erkinliklari davlatimiz himoyasidadir va bu qabul qilinayotgan normativ huquqiy hujjatlarimizda ula o'z aksini topgan. Ayni insonlarning ijtimoiy hayotida ko'plab hodisa va jarayonlar yuz beradi. Lekin bu holatlar va jarayonlar huquqbazarlik yoki jinoyat ko'rinishda ekanligi barchamizni tashvishga solamy qolamaydi albatta. Ularning sodir etilishi insonlarni huquq va erkinliklariga jiddiy zarar yetkazishi hamda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu holatlarni oldini olish uchun mamalakatimiz tomonidan qonunchilik normalari qabul qilinib amalda qo'llanilmoqda. Amaldagi Konstitutsiyamizning 27-moddasida ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra har bir inson erkinlik huquqiga hamda o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Shu bilan birgalikda *O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-51-moddalarida ushbu huquqbazarlikning turlari hamda ularga nisbatan qo'llaniladigan jazo turi ko'rsatib o'tilgan*. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar sifatida ko'pgina uchraydigan holatlar misolida birgina *O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 41-moddasi*:

**Haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni qadr-qimmatini qasddan kamsitish – bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 40 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.**

**Haqorat qilish-** fuqaroning sha'ni qadr qimmatini qasddan kamsitishdir. Haqorat bu shaxsga nisbatan salbiy baho berish, hamda shaxsning ma'naviy nufuziga yon atrofdagi shaxlarning oldida putur yetkazish hisoblanadi. Jabrlangan shaxsning boshqalar oldidagi hurmatiga, mavqeyini mensimaslik kamsitish demakdir. Bunda shaxs o'zgalar oldida hurmatini yo'qotish yoki kamsitishi kabi holati kuzatiladi. Mazkur huquqbazarlikning obyektiv tomoni harakat yoki harakatsizlik natijasida yuzga keladi. Obyektiv tomonining xususiyati shundan iboratki bu holat og'zaki , yozma { xat, rasm va b.sh} ko'rinishda yoki fuqaroning sha'ni qadr qimmatini yerga uradigan harakat ya'ni beadab imo-ishora yoki tarsaki kabilar bilan sodir etilishi mumkin.

Obyekt sifatida qaraladigan holat bu shaxsning sha'ni, qadr qimmati, uning obro'sidir. Maqzkur huquqbazarlikning subyekti 16 yoshga to'Igan aqli raso, ruhan sog'lom shaxsdir. Subyektiv tomondan esa to'g'ridan to'g'ri qasddan sodir etilishinidir. Ya'ni shaxs o'zining hatti-harakatlarini g'ayrihuquqiy ekanligini anglagan holda uning sodir etilishini lozim darajada istaydi va ko'zlagan maqsadi shaxsning sha'ni qadr qimmatini poymol qilishdir. Odatda haqorat qilish ko'pchilikning o'rtasida huquqbazarlikni sodir etgan shaxs uchun ham yoki jabrlanuvchi uchun ham tanish yoki notanish shaxslar o'rtasida ayrim holatlarda jabrlanuvchi shaxs yo'q holatlarda sodir etilishi mumkin. Bunda keyingi holatda aybdorning niyati haqoratning jabrlanuvchiga ma'lum bo'lishidan iborat bo'ladi.

Ushbu kodeksning 41<sup>1</sup>-modda Shahvoni shilqimlik qilish ya'ni shaxsga nisbatan uning nomaqbul bo'Igan hamda uning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlaydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda chaqirishda ifodalangan shahvoni xusussiyatga ega bo'Igan harakatlarni bir marta qo'pol ravishda yoki bir necha marta sodir etish,-

*BHM ning 2 baravaridan 5 baravarigacha jarima solishga yoki 5 sutkagacha ma'muriy qamoqqa olinishga sabab bo'ladi.*

Xuddi shu ma'muriy huquqbazarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilgandan keyin 1 yil davomida qayta sodir etilgan bo'lsa,-

*BMHning 5-7 gacha jarima solishga yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.*

Jamiyatda yurish-turish, odob-axloq normalariga riosa qilmaslik, qonunchilikni hurmat qilmaslik, millatning milliy qadr-qimmatini taxqirlaydigan huquqbazarlik sifatida qaraladi. Ushbu huquqbazarlikning subyekti 16 yoshga to'Igan aqli raso shaxs bo'lib, uning obyekti shaxsning qadr-qimmati uning ornomusi hisoblanadi. Subyektiv tomondan qaraladigan bo'lsa albatta bu qasd bilan qamrab olinadi. Obyektiv tomondan esa harakat yoki harakatsizlik natijasida ushbu huquqbazarlik sodir etiladi.

Ushbu norma qonunchiligidan yangi qo'shilgan bo'lishiga qaramasdan, uni sodir etuvchilar ko'pni tashkil etmoqda. Jamiyatdagi ushbu ko'ngilsiz voqeа hodisalarining asl sababi sifatida oila muhitining yomonligi, internet saytlarining pornografik reklamalari, farzand tarbiyasidagi sustkashliklar, hamda ularga yaratib berilgan bir qancha erkinliklardan to'g'ri foydalana bilmaslik yoki ota-onaning farzandlar tarbiyasida loqaytligini ko'rsatsak albatta maqsadga muvofiqdır. Ba'zi sababchilari qizlarning kiyinish madaniyatiga riosa qilmasligi yoki tarbiyasidagi kamchiliklarning borligi ham

katta sabablardan bo'lishi mumkin. Bu normaning qonunchilikka taklifi albatta jamiyatda ushbu huquqbazarlikning ortib borishi, ayollarga, balog'atga yetmagan qizlarga nisbatan ba'zi nafsga, fisqu-fasodga berilgan insonlarning shunday huquqbazarliklarni sodir etishi, ushbu normaning vujudga kelishiga turki bo'ldi. Bu turdag'i huquqbazarliklarga barham berish hamda oila turmush doirasidagi huquqbazarliklarni sonini ortib borishini oldini olish maqsadida ko'plab jamiyat uchun muhim bo'lgan qonunlar qabul qilindi. Jumladan O'zbekiston Respublikasining Yangi tahriridagi Konstitutsiyaning 54-moddasi hamda 58- modasida ularning huquq va erkinliklari mustahkamlab qo'yildi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining "**Xotin qizlarni taziq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida**" gi **O'RQ-561-son** qonuni hamda, "**Xotin qizlarni taziq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi **Vazirlar Mahkamasining 3- son** qarori asosida taziq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga IIV ning tegishli hududiy organlari tomonidan himoya orderi berilib kelinmoqda. Ushbu qonunchilik normalari o'z samarasini berib kelmoqda.

Respublikamizda aynan fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar ko'rsatkichi 2022-yil hisob kitobi <https://data.gov.uz> rasmiy saytining xabar berishiga ko'ra Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlikgi bo'yicha **51763 ta ma'muriy huquqbazarlik** qayd etilgan. Aslini olganda huquqbazarliklarning oldi olinmaganda uning oqibati jinoyat bilan tugashi hech birimizga sir emas. UzStat saytining 2022-yilgi barcha jinoyatlarning o'sish sur'atlari ko'rsatilgan. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning yanvar-iyun oylarida Respublika bo'yicha ro'yxatga olingan **jinoyatlarning umumiyligi 46529 tani** tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 1,0% bo'ldi. Ushbu davrdagi jinoyatlar soni 10 ming kishiga nisbatan 13,1 taga yetdi. Oxirgi uch yilda qayd etilgan jinoyatlar soni 2,1 barobarga oshgani qayd etildi. Demak, agar 2020 - yilning yanvar-iyun oylarida jinoyatlar 21535 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning shu davrida bu ko'rsatkich 46529 taga yetdi. 2021 yilning yanvar-iyun oylarida yillik o'sish 2020-yilning o'tgan davriga nisbatan 111,9 % va 2022-yil yanvar-iyun oylari uchun 2,0% tashkil etgan. Shuningdek birinchi yarim yillikning o'tgan davriga nisbatan o'sish 899 ta huquqbazarlikni tashkil etdi.

**MA'LUMOT UCHUN:** Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi global tashabbus hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda jinoyatchilik indeksi 33,76 ballni, xavfsizlik bo'yicha esa 66,24 ballni tashkil qilgan. 2022- yilda sayohat qilish

uchun dunyoning eng xavfsiz mamlakati Qatar hisoblanib, jinoyatchilik indeksi 13,7 va xavfsizlik indeksi 86,2 bo'lgan. Belgilangan davrda jinoyat sodir etgan shaxslarning umumiy soni 39 439 nafarni tashkil etdi. Aniqlangan huququzarlar orasida 32 044 nafar shaxs (81,2 %) jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ularning 3,4 % ini voyaga yetmaganlar tashkil etdi. Huququzarlik sodir etgan ayollarning ulushi jami 12,0 % ni tashkil etdi.



Bugungi kunda odab-axloq normalari, jamiyatda yurish turish qoidalari buzish ko'p holda e'tiborga molik holda ko'zga tashlanadi. Insonlarning bir-birlariga bo'lgan nosamimiyl xulq-atvori, qonunchilik normalarini amal doirasida bajarmaslik yoki uni buzish, ota-onalik burchiga lozim darajada e'tibor qaratmaslik, farzand tarbiyasidagi kamchiliklar, Shaxsga bo'lgan husumad doirasida uning shaxsiga doir ma'lumotlarni oshkor qilish hamda boshqa holatlar ijtimoiy hayotda huququzarlik sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqimizda farzand tarbiyasiga loqaydlik bilan qaramaslik, farzand kamolini, porloq kelajagini ta'minlash lozim darajada kerakligi aytib o'tilgan. Odatdagi huququzarlikka bo'lgan moyillik albatta tarbiyatagi kamchiliklardir. Shaxsning boshqa insonlar bilan muloqotida nosamimiyl xulq-atvor behurmatlik doirasida ko'pchilik orasida o'zining tanishi yoki begona shaxslar bilan kelisha olmaslik natijasida unga nisbatan turli xil haqoratli so'zlar bilan obro'sizlantirish yoki tuhmat qilish kabi huququzarlik sodir etishi mumkin. Haqorat qilish bugungi kunda eng ko'p sodir etilayotgan huququzarliklardan biri sifatida qaraladi. Yoki tuhmat uning ham ijtimoiy hayotda ahamiyati katta. Chunki shaxsing nomiga nisbatan turli xildagi yolg'on, haqiqatdan mavjud bo'lmagan hodisa voqealikni sha'niga nisbatan obro'sizlantirish maqsadida qo'llanilishi huququzarlikni keltirib chiqaradi. Buning asl sababi huquqiy ong, huquqiy madaniyatning pastligi va qonunchilik normalaridan xabardor emasligi yoki uni qasddan menisimaslikdir. Yana e'tiborga molik huququzarliklardan biri bu qonunchilik normalarini qasddan buzish yoki xizmat burchini mansabidan kelib chiqqan holda uni to'la yoki qisman

bajarmaslik va hizmat vazifaga sovuqqonlik bilan yondashish, suiste'mol qilish. Qonunga bo'ysinmaslik degani nima o'zi!. Qonunga bo'ysinmaslik – bu amaldagi davlat tomonidan alohida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohani tashkil etish, rivojlantirish maqsadida va ma'lum sohalarni faoliyatini qamrab oluvchi barcha uchun majburiy tusdagi qonunchilik normalarini qasddan buzish yoki unga amal qilmaslikdir. Yuqoridagi ta'rif albatta shaxslarning Davlat tili, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, Nikoh yoshi, Mehnat va mehnatni muhofaza qilish, Aholini ish bilan ta'minlash, Xususiy bandlik agentliklari, Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini buzishni amaldagi ta'rifi desak yanglishmagan bo'lamiz. Mansabdor shaxslarning aynan mansab vakolatlarini to'la bilmasligi, uni suiste'mol qilishi yoki fuqarolardan moddiy ne'mat yoki shu turdagи boshqa narsalarni talab qilib korrupsiya holatlarini tashkil qilishi, o'z nafslarining qurboni bo'lishi aynan shu turdagи huquqbazarliklar hamda jinoyatlarning sabablarini tashkil qiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bu kabi huquqbazarliklar va jinoyatlarning ko'payishi jamiyatimizni gulkirab rivojlanishi va taraqqiyotining yuksalishi uchun jiddiy to'siq bo'lib kelmoqda. Aholida sog'lom turmush tarzini targib qilish, joylarda huquqbazarlik yoki jinoyat sabablarini ochiq o'rganib xulosa qilish hamda bu kabi holatlarning asl sabablarini aholi ongiga singdirish kerak. Mahallalarda uyushmagan yoshlар, kam taminlangan oilalarni holidan doimiy xabar olish ulardagi kamchiliklarni aniqlash hamda ularni samarali yechimlarini amalga oshirish lozim. Bu borada mehnat va bandlik bilan ta'minlash idoralari va mahallalardagi tadbirkorlik subyektlari bilan doimiy bo'sh ish o'rinlarini aniqlab aholini ishsiz qatlamini ish bilan ta'minlash maqsadga muvofiq. Doimiy notinch oilalarning turmush sharoitini o'rganish, farzand tarbiyasi hamda oilada farzandga bo'lgan munosabat uning o'rni, o'qishdan bo'sh vaqtleri qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi haqida boxabar bo'lish kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yangi O'zbekiston Tarraqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev-Erkin va Farovon Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. <http://arm.sies.uz/?wpdmpro=sh-m-mirziyoyev>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni

amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-27-son farmoni.  
<https://lex.uz/docs/-5749291>

4. Ma’muriy huquqbazarliklarga oid statistik ma’lumotlar.  
<https://data.egov.uz/uzbKr/spheres/607ff3e67b6428eee08802b>

5. O’zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g’risidagi kodeksi <https://lex.uz/acts/-97664>

6. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/.www.stat.uz>.  
<https://stat.uz/uz/rasmiystatistika/crime-and-justice-2>